

2-TOM, 1-SON

EKOLOGIK TA'LIM-TARBIYANING UYG'UNLIGI

Boshlang'ich ta'lim fakulteti boshlang'ich ta'lim yo'nalishi, 3-bosqich talabasi

Bo'tayorova Tamara O'ral qizi

Annotatsiya: Maqolada ekologik ta'lim, atrof-muhitni muhofaza qilishning muhimligi, ekologik ta'lim-tarbiya va madaniyat ta'limiy sharoitda aniqlashtirilgan.

Kalit so'zlar: ekologik ta'lim va tarbiya, madaniyat, o'quvchilar, atrofimizdagi olam, tabiiy fanlar, tabiiy savodxonlik.

Tabiat-o'zidagi bor asl, ezgu narsalarni boshqalarga chin ko'ngildan ulashayotgan va bundan o'zi ham g'oyat zavqlanayotgan tanti va saxiy kishiga qiyoslanishi bejizga emas. Insoniyatga bitmas-tuganmas ne'matlarni tortiq qilgan yaratgan ona tabiatning bag'riga ne-ne hadyalarni jo etgan. Shu tariqa yer yuzida qimirlagan jon borki rizqlantirilgan. Inson atalmish oliy xilqatdan tortib uchadigan qushning, suzadigan baliqning, qurt-qumursqa-yu hayvonot va nabototning barini tabiat yashatib va yashatib turishi sir emas. Tekinga tarqatilsa, tillaning qadri bo'lmaganidek tabiatning bu saxovatiga bashariyat hozirgi kunimizda aks ta'sirini ko'rsatmayaptimikan? Qaysidir g'oyani ilgari surishdan avval biz o'z fikrimizni quvvatlantirish unga ishonish va o'zgalarni ishontirish uchun o'zimiz qanchalik amal qilyapmiz? Har birimiz shu savolni o'zimizga berib ko'raylik. Xo'sh tabiat muhofazasi uchun biz nima qilyapmiz loaaqal unga zarar keltirayotganimiz yo'qmi? degan savolni berib ko'raylik. Har bir inson o'zida ekologik madaniyatni shakllantirishi, boshqalarni ham shunga da'vat etishining o'zi tabiatga befarq emasligidan dalolat.

Yangi energiya manbalarining kashf etilishi va innovatsion texnologiyalarning ishlab chiqarilishi insoniyatning borlig'iga kuchli va har tomonlama ta'sir ko'rsatishi o'zi bilan ijobiy mazmun mohiyat olib kelsada, biroq minglab salbiy oqibatlarni ham olib keladi. O'ylamasdan bosilgan qadam va tabiatdagi jarayonlarga aralashuv atrof-muhitni muhofaza qilish borasida nihoyatda tashvishli vaziyatni vujudga keltirdi..

Ta'kidlash joizki, o'tmishda biologiya fanining alohida tarmog'i sifatida paydo bo'lgan ekologiya sohasi anchayin mufassal tadqiq etilgan. Ekologiyaning rivojlanish tarixida bir-biriga o'xshash ikki jihatga e'tibor qilish maqsadga muvofiq: bir tomondan, tirik organizmlarning atrofda muhit omillari bilan o'zaro aloqadorligi har jihatdan chuqur o'rganilib, biologiya fanining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida biologik ekologiya jadal rivojlana boshlagan; ikkinchi tomondan, odamning maishiy-xo'jalik faoliyati (antropogen ta'sirlar) tufayli tirik organizmlarning hayotiy makoni, yashash sharoitlari jiddiy o'zgarib, u



2-TOM, 1-SON

yoki bu turdagi organizmlar-ning yo'qolib ketishi, kamayishi yoki birdaniga ko'payishi kuzatila boshlangan.

Aynan ikkinchi jihat tabiatni muhofaza qilishning paydo bo'lishiga turtki bo'lgan. Uning predmeti - tabiat va jamiyat o'rtasida o'zaro maqbul munosabatlar o'rnatish, tabiat va madaniyatni o'zaro birlashtirish jarayon-lari hisoblanadi. Bunda tabiat inson ta'sirini o'zida sezmagani jonsiz (abiotik) va jonli (biotik) tarkibiy qismlar majmui sifatida, madaniyat esa inson faoliyati, uning tashkil etilishi, kishilarning tabiat bilan o'zaro munosabati usullari sifatida qarab chiqiladi.

“Ekologiya” - (yunoncha - uy, turar joy va logiya) - organizmdan har xil darajada yuqori turadigan tizimlar; populyatsiyalar, biotsenozlar, biogeotsenozlar (ekosistemalar) va biosferaning tuzilishi, ularda kechadigan jarayonlarni o'rganadigan biologiya fanlari majmui deb izohlanadi. Shuningdek, ekologiyani organizmlar va ular bilan atrof muhit o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganadigan fan sifatida ham talqin qilinishi keltiriladi.

Mustaqillik yillarida ekologik ta'lim nazariyasi va metodikasi mazmunan qayta ko'rib chiqilib, uning turli jihatlariga oid umumdidaktik qonuniyatlar, tamoyillar ishlab chiqilgan bo'lsa-da, ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirishning mazmun-mohiyati, tuzilmasi va o'zaro bog'liqligi masalasi nazariy-metodologik, ilmiy-pedagogik jihatdan to'liq, tizimli o'rganilmagan. Agar odamning o'z-o'ziga, boshqa kishilar va atrof-muhitga bo'lgan munosabati ekologik ong va madaniyat nuqtai nazaridan tahlil etilsa, ekologik ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasini tubdan qayta ko'rib chiqish zaruriyati paydo bo'ladi. Bu zaruriyat, tabiiyki, samarali ekologik ta'lim-tarbiya tizimini vujudga keltiradi.

Demak, ekologik ta'lim, atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirishning muhimligi – dolzarb muammo ekanligi bilan tavsiflanadi.

Ekologik ta'lim-tarbiyani singdirishdan asosiy maqsad - o'quvchilarda tabiiy hodisa va jarayonlarni tahlil qilish ko'nikmalarini tarkib toptirish, ma'naviy-axloqiy sifatlarni o'zida mujassam etgan barkamol yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazib, hamda ularni ona yurtini sevishga, atrof - muhit tozaligini ta'minlashga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq ekologik ta'limni amalga oshirish jarayonining tizimli tahlili ekologik ta'limni tashkil etishda bu boradagi islohotlarni to'liq ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qiluvchi quyidagi jiddiy muammo va kamchiliklar saqlanib qolayotganligini ko'rsatmoqda.

Singapur tajribasi ekologik ta'lim naqadar ahamiyatli ekanligini ko'rsatib turadi: jamiyat bolalar tarbiyasi yuzasidan muammolarga duch kelganida mamlakat bosh vaziri Li Kuan Yunning o'tkazgan islohotlari natijasida maktablarda o'simlik va hayvonot dunyosiga mehrni kuchaytirish borasida ekologiya darslari soni oshirildi. Hayvonlarga shafqatsiz munosabatda bo'lgan ota-onalarni ularning o'z farzandlari uyaltira boshladi. Singapurda



2-TOM, 1-SON

aynan uysiz hayvonlarni himoya qilish borasida kompaniyalar boshlandi. Natijada, bolalar va o'smirlar amalga oshirayotgan jinoyatlar soni keskin kamaydi. Shuning uchun ko'rilayotgan choralar, shu jumladan, qabul qilinayotgan qonunlar, tarbiyaviy usullar hayvonlarga, o'simliklarga, balki butun tabiatga nisbatan insonparvarlik madaniyatini va mas'uliyat hissining shakllanishiga xizmat qilishi kerak.

Ekologik ta'lim-tarbiyaning nazariy asoslari I.D.Zverev, ekologik ta'limning maqsad va vazifalari, printsiplari, mazmuni, shuningdeq o'quvchilarda nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish kabi pedagogik muammolar A.N.Zaxlebniy, V.N.Maksimova, L.P.Salaeva, K.A.Rikov, A. T. Terletskeya, ekologik ta'limning biologik yo'nalishlari I.T.Suravegina, oliy ta'lim muassasalari talabalariga ekologik ta'lim berish I.Ponomaryovalar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lsa, umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilariga tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida ekologik ta'limning fizik jihatlari E.O.Turdiqulov, M.M.Mirboboyev, B.B.Knorre, M.O'ralov, L.Xudoyberdiyev, A.O'razaliyev, Yu.Karimovlarning ilmiy tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan.

A.T.Terletskeya o'z ishlarida ekologiya tushunchasiga ilmiy-nazariy jihatdan yondashib, tirik organizmlarning atrof - muhit va bir - biri bilan aloqalari yagona va juda murakkab tizimni tashkil qilishini asoslab berdi. Olimaning e'tirof etishicha, "ekologiya - bu hayot sharoitlari, tirik organizmlarning o'zlari bilan atrof - muhitning noorganik qismi bilan aloqasi, insonning tabiatga ta'siri va uning faoliyati oqibatlarini haqidagi fan". Muallif mazkur qo'llanmada o'quvchilarning ekologik tafakkurini, atrof -muhit holatini va insonga zararli va xavfli omillarning ta'sir darajasini munosib baholash qobiliyatini rivojlantirish, tabiatni oqilona boshqarishning ayrim jihatlari, shuningdek, zararli, xavfli va o'ta xavfli hayot sharoitida himoya qilish vositalari va usullariga alohida e'tibor qaratadi. Shuningdek, ekologik xavfsizlik masalasiga doir fikrlari e'tiborga molik. A.T. Terletskeyaning fikriga ko'ra, ekologik xavfsizlik - bu tabiat, shaxslar va umuman insoniyatga zarar etkazmaydigan yangi texnologiyalar yaratish, harakatlar va jarayonlar majmui. "Inson - atrof - muhit" tizimida odamga to'satdan, davriy yoki doimiy zararli va xavfli omillar salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Olima zaharli va xavfli omillarni kelib chiqish tabiatiga ko'ra uch turga ajratadi: tabiiy (tabiiy), antropogen (inson), texnogen (sanoat). SHuningdek, insonga ta'sir qilish xususiyatiga ko'ra zararli va xavfli omillarni farqlaydi: fizik (mashinalar, mexanizmlar, tashiladigan yuklar, elektr toki, yuqori yoki past temperatura, shovqin, tebranish, changlanish, ish joyining yomon yoritilishi va boshqalar); kimyoviy (pestitsidlar, toksik moddalar, dorilar va boshqalar); biologik (mikroorganizmlar, zaharli o'simliklar va zamburug'lar, tajovuzkor yoki kasal hayvonlar va boshqalar); psixofiziologik (jismoniy va



2-TOM, 1-SON

aqliy zo'riqish, eshitish va ko'rish organlarining haddan tashqari zo'riqishi). Muallifning fikriga ko'ra inson faoliyatining mutlaqo xavfsiz turi yo'q. Inson faoliyati natijasida yuzaga keladigan barcha xavf -xatarlar bo'lishi mumkin, lekin zarar etkazmaydi va qamrov doirasi cheklangan.

Fikrimizcha, bizni o'rab turgan atrofimizdagi olamda hayot kechirayotgan tirik organizmlarning barchasi yerdagi hayotning bir bo'lagidir. Sayyoramizdagi barcha ne'matlar: suv, yer, tog', o'simlik va hayvonot dunyosi, aniq o'lchov bilan va bir-biriga bog'liq qilib yaratilgan bo'lib, hayotning davomiyligi bevosita unda yashovchi insonlarning munosabatiga bog'liq. Bugungi kundagi eng xavfli holat shuki, shiddat bilan rivojlanib borayotgan fan-texnika va texnologiyalarning hayotimizga kirib kelishi, zamonaviy fan va innovatsion texnologiyalar yutuqlaridan foydalanib yashirin tarzda kashfiyotlar yaratilishi o'zining ham ijobiy ham salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Mazkur muammoning hal qilinishi bevosita insonning atrof-olamga bo'lgan munosabatini o'zgartirishdan izlash kerak. Bunda avvalo tabiatni o'rganadigan soha olamiga murojaat qilib, uning qonuniyatlariga amal qilishimiz muhim aks holda tabiat ayanchli falokatlar va jiddiy muammolar kelib chiqadi. Har bir inson dunyoni, tabiatni asrab-avaylashga o'z hissasini qo'shmog'i darkor. Tabiatdagi o'zgarishlar tirik organizmlarning yashash muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi kerak.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mukhtarova L.A. Ways of formation of ecological culture in children of primary age // AJMR:Asian Journal of Multidimensional Research Journal. Vol 10, Issue 4, April, 2021. - Pp 648-652. (Impact Factor 7.699).
2. Мухтарова, Л. А. (2017). БОШЛАНГ'ИЧ СИНФЛАРДА РИВОЖЛАНТИРУВЧИ ТА'ЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИДАН FOYDALANISH IMKONIYATLARI. Апробация, (2), 93-94.
3. Мухтарова, Л. А. (2017). БОШЛАНГ'ИЧ ТА'ЛИМ САМАРАДОРЛИгини OSHIRISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING O'RNI. НАУЧНЫЙ ПОИСК В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ (pp. 119-120).
4. Mukhtarova, L. A. (2021). THE USE OF INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN THE FORMATION OF A CULTURE OF ENVIRONMENTAL SAFETY. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(10), 792-797.
5. Mukhtarova Lobar Abdimannabovna. (2021). POSSIBILITIES OF AN INTEGRATIVE APPROACH TO THE FORMATION OF A CULTURE OF ENVIRONMENTAL SAFETY. European Scholar Journal, 2(11), 43-44.



2-TOM, 1-SON

6. Muxtarova, L. A. (2021). Ways of formation of ecological culture in children of primary age. *Asian Journal Of Multidimensional Research*, 10(4), 648-652.

7. Muxtarova, L. A. (2021). Use of multimedia technologies in the educational process. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 1781-1785.

8. Мухтарова, Л. А. (2018). Пути Использования Возможностей Мультимедиа В Повышении Качества И Эффективности Уроков Чтения В Начальных Классах. *Научные горизонты*, (11-1), 247-252.

9. Мухтарова, Л. А. (2018). Развитие И Формирования Критического Мышления У Школьников Начальных Классах. *Гуманитарный трактат*, (24), 13-14.

10. Мухтарова, Л. А. (2018). Развитие творческого мышления у школьников начальных классов. *Гуманитарный трактат*, (24), 9-10.

11. Kulmuminov, U., & Mukhtarova, L. (2023). POSSIBILITIES OF CREATIVE THINKING AND ITS MANIFESTATION IN THE EDUCATIONAL PROCESS. *Open Access Repository*, 4(02), 81-84.

12. Abdimannabovna, M. L. (2022). Opportunities for an Interdisciplinary Integrated Approach to Improving the Culture of Environmental Safety. *Eurasian Scientific Herald*, 7, 7-12.

13. Munzifa Tangirova, & Lobar MUKHTAROVA. (2023). WAYS OF READING LITERACY DEVELOPMENT IN PRIMARY SCHOOL PUPLS. *European Scholar Journal*, 4(2), 88-89. Retrieved from

14. Lobar Mukhtarova, & Shahnoza Isakova. (2023). METHODOLOGY OF SPEECH DEVELOPMENT OF VISUALLY IMPAIRED STUDENTS. *Academia Repository*, 4(10), 360–371. Retrieved from

15. Mukhtarova Lobar Abdimannabovna, & Saidakhmatova Nafisa Soatmurod kizi. (2023). DEVELOPMENT OF READING UNDERSTANDING SKILLS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS. *Academia Science Repository*, 4(04), 18–22. Retrieved from

16. Nafisa Saidakhmatova, & Lobar Mukhtarova. (2023). THE SIGNIFICANCE OF A ARTWORK IN THE FORMATION OF LEARNING SKILLS. *Academia Science Repository*, 4(04), 176–180. Retrieved from

17. Pardayeva Gulbahor Jalgashevna, & Mukhtarova Lobar Abdimannabovna. (2023). PEDAGOGICAL POSSIBILITIES OF TEACHING NATURAL SCIENCES BASED ON STEAM TECHNOLOGY. *World Bulletin of Social Sciences*, 21, 109-111. Retrieved from



2-TOM, 1-SON

18. Feruza RAKHMONOVA, & Lobar MUKHTAROVA. (2023). THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF FORMING A CULTURE OF READING IN PRIMARY EDUCATION. *European Scholar Journal*, 4(3), 5-7. Retrieved from

19. Saodat MINGNOROVA, & Lobar MUKHTAROVA. (2023). THE METHODOLOGY OF DEVELOPING THE CREATIVITY OF THE BEGINNING 1ST CLASS TEACHER WITH THE HELP OF ETHNOPEDAGOGY. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 33-37. Retrieved from

20. Daminova Dilbar Melimurodovna, & Mukhtarova Lobar Abdimannabovna. (2023). PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES OF FORMING MATHEMATICAL LITERACY SKILLS OF PRIMARY SCHOOL PUPILS. *Open Access Repository*, 4(3), 971-976.

